

RESEARCH ARTICLE

The Portrayal Of Women In Premchand's Novel "Fate" In The Uzbek Translation

Khayrulla Hamidov

Professor, DSc. Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

Aziza Mavlonova

1st-Year Master's Student Tashkent State University of Oriental Studies Tashkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 145-149

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-NonCommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article analyzes the features of the translation of the portrait of women in Premchand's novel "Qismat". The image of women in the work, formed against the background of poverty, social inequality, and patriarchal relations, is examined in comparison with the Uzbek and Urdu texts.

KEY WORDS

Feminine portrait, equivalence, style of translation, adequate translation, literature image.

INTRODUCTION

Adabiyotda ayol obrazi XX asrning boshlaridan boshlab dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri sifatida shakllandi. Bu davrda hind ijtimoiy hayotida hukm surgan tabaqalanish, iqtisodiy tengsizlik va patriarxal munosabatlar yozuvchilar e'tiborini aynan ayolning taqdiri, uning ijtimoiy-ma'naviy iztiroblari orqali ochib berishga undagan. Realistik adabiyotning yirik vakili Premchand ayol obrazlarini jamiyatdagi zulm, kambag'allik, maishiy zo'ravonlik, mehnat ekspluatatsiyasi bilan bevosita bog'lab tasvirlaydi. Uning qahramonlari orqali ayolning nafaqat tashqi portreti, balki ruhiy dunyosi, ijtimoiy maqomi va tafakkuri chuqur ochib beriladi.

Premchand o'zining mashhur asari, hind realizmining eng yetuk namunalari qatoridan o'rin olgan "Qismat" ("Gaodan") romanida xalqning og'ir turmushi va ijtimoiy tabaqalanish muammolarini aks ettirish bilan bir qatorda, ayollarning erkaklar bilan teng bo'lmagan sharoitda qanday yashagani, hayot qiyinchiliklariga qanday bardosh bergani va kurashganini badiiy talqin

qilgan.

Romandagi Dhaniya, Jhuniya, Suna, Punniy kabi obrazlar patriarxal jamiyatda ayolning o'rni, uning ijtimoiy vazifalari va hayotiy sinovlarining yorqin namunalarini aks ettiradi. Shuning uchun Gaodan asaridagi ayollar portreti — badiiy tasvir, psixologik tahlil va ijtimoiy haqiqat uyg'unlashgan kompleks obrazlar tizimidir. Premchand yaratgan ayollar ana shu nazariy mezonlar bo'yicha ko'rib chiqilganda, ular jamiyatning muayyan davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini aks ettiruvchi badiiy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Ayolning tashqi qiyofasidan tortib, uning ruhiy iztiroblari va maishiy hayotiga qadar bo'lgan har bir badiiy detal muallifning realizmga xos kuzatuvchanligi va hayot haqiqati bilan uyg'unlashib boradi.

Shu bois mazkur maqolada Qismat asarida ayollar obrazining badiiy portreti, ularning ijtimoiy ahvoli va psixologik tasvirlari nazariy yondashuvlar

asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot Premchand realizmining ayolga munosabati va uning badiiy ifodasini ochib berish, shuningdek, asardagi ayollar portretining ijtimoiy-estetik mazmunini tarjimada qay tariqa aks etganini o'rganadi. Dhaniya endi o'ttiz oltiga kirgan bo'lsa ham, uni ko'rgan odam kampir derdi sochi oppoq oqarib, yuzlarini ajin bosgan, beli bukchayib qogan. Ilgarigi sariqmag'iz, chiroyligina Dhaniya kuyib, unniqib ketgan. Ko'zlari ham ancha ojizlashib qolgan. Hammasi shu qorinning dardida.(6- bet)

اب اس کی عمر کیاتھی؟ چھتیسواں سال ہی تو تھا مگر سر کے سارے بال پک گئے تھے چہرے پر جھیریاں تھیں جسم ڈھل گیا تھا۔ خوبصورت گندمی رنگ سانولا پڑ گیا تھا اور آنکھوں سے بھی کم دکھائ دیتا تھا۔ یہ سب کچھ پیٹ کے فکر ہی کے سبب تو تھا۔ کبھی تو جینے کا سکھ نہ لا۔
Ushbu abzasning satr osti tarjimasi quyidagichadir.

Uning yoshi nechida edi? 36 yoshga o'tyatgan bo'lsa ham boshidagi hamm sochlari oqargan, yuzida ajinlar, tanasi bo'shashgan edi. Chiroyli sariq yuzi quyoshda qoraygan ko'zlari ha ojizlashgan edi. Buning hammasi qorin g'amida edi. Hali ham hayotida zavq yoq edi.

Keltirilgan o'zbekcha va urducha parcha Premchand ijodiga xos bo'lgan realizm, ijtimoiy tengsizlik va kambag'allikning inson hayotiga ko'rsatgan ta'sirini yorituvchi tipik misoldir va u mazmuniy va stilistik ko'rsatkichlar jihatidan muayyan o'ziga xosliklarga ega. Matnda ayolning erta qarishi, qashshoqlik tashvishidan holdan toygani tasvirlanadi. Ushbu matn mazmunini urdu tilidan o'zbek tiliga ko'chirish jarayonida tarjimon bir vaqtning o'zida ma'noni saqlash, uslubiy moslikni ta'minlash va realiyalarni o'quvchiga to'g'ri yetkazish kabi vazifalarni bajarishi zarur bo'lgan.

Avvalo, matnning boshlanish qismida yoshga doir tasvir beriladi. Urducha "چھتیسواں سال ہی تو تھا" iborasi o'zbek tilida "o'ttiz oltinchi yilga kirgan edi" tarzida tarjima qilingan bo'lib, bunda so'zma-so'z ekvivalentlik to'liq saqlangan. Tarjimon ushbu joyda ma'noni so'zma so'z yetkizib bergan. Biroq keyingi jumalalarda, ayniqsa tashqi ko'rinishning o'zgarishiga oid tasvirlarda, tarjimon ma'lum darajada uslubiy transformatsiyalarga murojaat qilganini ko'rish mumkin. Masalan, urdu matnidagi "جسم ڈھل گیا تھا"

iborasi so'zma-so'z tarzda "tana bo'shashgan edi" ma'nosini beradi, ammo o'zbekcha tarjimada u "vujudi holdan toygan edi" ko'rinishida ifodalanib, emotsional kuch biroz oshirilgan holda, o'zbek tilining odatiy badiiy ifoda vositalariga moslashtirilgan. Bu holat tarjimadagi stilistik kompensatsiya bilan izohlanadi.

Uslubiy jihatdan urdu matni qisqa, ammo keskin gaplardan tashkil topgan bo'lib, bunda dramatik holat kuchli seziladi. O'zbekcha matnda esa gaplar sintaktik jihatdan kengaytirilgan, murakkablashtirilgan. Bu farq tarjimonning o'zbek tili badiiy uslubiga moslashuvini ko'rsatadi. Shunga qaramay, umumiy mazmuniy dramatism va ayolning fojiviy ahvoli tarjimada saqlanib qolgan.

Urducha "یہ سب کچھ پیٹ کے فکر ہی کے سبب تو تھا" jumlasini hind-urduda keng qo'llaniladigan metafora bo'lib, qashshoqlikning inson hayotini yemiruvchi kuchini anglatadi. O'zbekcha variantda bu «bularning barchasi — qorin tashvishining natijasi edi» tarzida berilib, realiya adekvat uzatilgan.

Shuningdek, ko'rish qobiliyatining yomonlashuviga doir "آنکھوں سے بھی کم دکھائ دیتا تھا" iborasi o'zbekcha matnda "ko'zlari ham yaxshi ko'rmay qo'ygan edi" shaklida konkretlashtirish usuli yordamida aniqroq ifodalangan. Bu semantik transformatsiya o'zbek o'quvchisi uchun tushunarlikni oshiradi.

Tarjimonning asosiy yutug'i mazmunga to'liq saqlab qolgan holda badiiy ekspressiyani ushlab qolishi, kamchiligi esa urdu matniga xos stilistik dramatismning qisman yo'qolishidir. Shu bilan birga, matnning umumiy maqsadi — ayolning hayotiy fojiviy holatini ko'rsatish — tarjimada to'la ifodalangan.

Qizlarning kattasi-Suna bo'yi yetib qolgan; uyatchanggina bir qiz edi. Qorachadan kelgan, qaddi qomati kelishgan, dalli g'uligina, epchil. U qizil qalami sariysining etagini qaytarib beliga bog'lab olgan edi. Bu soriy uning nozik badani uchun qo'pollik qilayotganday tuyulardi va uni katta ko'rsatib, salobat berib turardi. Kichkinasi Ruvpa, beshlarga borgan, o'jar, yigloqi bir qizcha edi. Hamma yog'i kir, sochlariga bir umr taroq tegmagan, langutiysining bir pochasinini beliga bog'lab olgan.(23-bet)

بڑی لڑکی سونا شرمیلی لڑکی تھی، سانولی، سڈولی، تیز اور خوش۔ گاڑھے سوراخ ساڑی جسے وہ گھٹنوں سی موڑ کر کمر میں باندھے ہوئے تھی، اس کے بلکے بدن پر کچھ لدمی بوک سی معلوم ہوتی تھی اور اسے سنجنگی کا رنگ دے رہی تھی۔ چھوٹی لڑکی روپا پانچ چہہ سال کی چھو کری تھی، میلی سر پر بالوں کا ایک گھونسلہ سا بنا ہوا، ایک لنگوٹی کمر میں لگی ہوئی، بڑی شریر اور رونے والی۔

Yuqoridagi matnning satr osti tarjimasi quyidagichadir "Katta qizi- Suna, uyatchang, qorachadan kelgan, xushbichim chaqqon va quvnoq. U qizil sari kiygan va tizzasigacha shimarib beliga bog'lab olgan edi. Bu sari uning nozik badaniga keng turardi va uni biroz bosiq ko'rsatar edi. Kichik qizi Rupa besh-olti yoshli qizcha edi. Sochlari uyasimon bo'lib chigal bo'lgan. Faqatgina langotisi bor edi. Juda sho'x va yig'loqi edi

Keltirilgan parcha ikki qiz — Suna va Rupaning tashqi ko'rinishi, xarakteri va ijtimoiy holatini badiiy detallar orqali ko'rsatadi. Urducha matnda Suna "sharmili, sanoli, s'doli, tez aur خوش" sifatleri orqali tasvirlanadi; bu sifatlar o'zbekcha variantda "uyatchangina, qorachadan kelgan, qaddi qomati kelishgan, epchil" tarzida berilib, semantik jihatdan ekvivalentlik ta'minlangan. Bunda ayrim sifatlar kontekstga mos *idiomatik ekvivalentlar* bilan almashtirilgan. Masalan, "sanoli" aslida bug'doyrang-qoracha terini bildiradi, tarjimada "qorachadan kelgan" ifodasi bilan berilgan; "s'doli" — "qaddi-qomati kelishgan", "xushbichim" shaklida mazmunini to'liq aks ettiradi.

Sariy tasvirida ham muhim stilistik farqlar kuzatiladi. Urducha matnda "as... ga'rahe s'urax sa'ri" ke' blake بدن پر کچھ لدمی بوک سی معلوم ہوتی تھی jumlasida sariyning qalinligi va qizning nozik vujudi bilan nomutanosibliği kuchli tasviriylik bilan berilgan. O'zbekcha matnda bu "Bu sariy uning nozik badani uchun qo'pollik qilayotganday tuyulardi" tarzida berilib, *tasviriy kuch yumshatilgan*, biroq ma'no yo'qotilmagan. Shuningdek, urdu matnidagi "sariy de' rabi" tarzida berilib, *tasviriy kuch yumshatilgan*, biroq ma'no yo'qotilmagan. Shuningdek, urdu matnidagi "ya'ni "salobat yoki kattalik berayotganday" degan ma'no o'zbekcha "uni katta ko'rsatib, salobat berib turardi" shaklida to'liq ekvivalent tarzda aks ettirilgan.

Rupaning tasvirida: "sariy per balon ka aik" — ishlatilgan bo'lib, bu ibora obrazli sochning iflos, tartibsiz, uya kabi ko'rinishini bildiradi. O'zbekcha variantda u "Hamma yog'i kir, sochlariga bir umr taroq tegmagan" deb berilgan bo'lib, bu semantik mazmunni to'liq beradi, uni yanayam "bir umr taroq tegmagan" sifati orqali ifodaviylikini oshiradi. Bu o'zbek o'quvchisi uchun mazmunni tushunarli qiladi. Shuningdek, "o'jar, yig'loqi" — "b'ri shirir aur rone'vali", tarzida juda to'g'ri tarjima qilingan. "panch cheh saal ki" esa "beshlarga borgan qizcha" shaklida biroz umumlashtirilgan

Umuman bu parchadagi kambag'allik ichida ulg'ayotgan ikki qizning holati to'la uzatilgan.

Jhuniya uyingning eshigida tikka turardi. Ko'zlari qip qizil burnining uchi ham qizargan. Aftidan, hozirgina yig'laganga o'xshardi. Uning durkun, baquvvat, kelishgan qaddi qomati bahorgi guldek yashnab turardi. Yuzlari dumaloqqina, peshonasi torgina bo'lsada, bo'rtib turgan ko'kraklari bilan momiq badani kishini maftun qilardi. Egnidagi pushti rang guldor soriy esa husniga husn qo'shib turardi.(35- bet)

Jheniya chokhet per khetri t'hi. as ki ank'hi s'irj t'hi aur nak ke s're per'hi s'irj t'hi. m'elom bota t'ha t'ha t'ha ro kr a'hi. as ke b'ere b'ere, t'nd'rt aur s'nd'ol a'zabar m'li g'ishab ang'athai le r'ha t'ha. j'ere b'ra aur gol t'ha, gal p'hole b'ere. ank'hi ch'othi aur and'r'd'h'nsi b'oth'i, ma't'ha t'ng, m'gr s'ine ka ab'ar aur j'sm ka g'd'g'ap'n ank'heon ko k'hit'ch' l'ita t'ha. as per ch'ehi b'oi gl'abi sa'ri aur b'hi z'int b'ra r'bi t'hi.

Satr osti tarjima quyidagichadir : " Jhaniya eshik ostonasida turardi. Uning ko'zlari qizarib ketgan edi va burnining uchida ham qizarish bor edi. Go'yo hozirgina yig'lab turgandek ko'rinaridi. Uning to'la, sog'lom va kelishgan tanasida xuddi uning yoshlik bahori o'zini namoyon etayotgan. Yuzy katta dumaloq edi, yonoqlari shishgan edi. Ko'zlari kichik ichkariga botgan, peshonasi ingichka, lekin badanining yumshoqliği (sinasining bo'rtib chiqqani) ko'zlarni o'ziga tortar edi.

Premchandning ushbu parchasida Jhuniya obrazining tashqi ko'rinishi, holati va ayol go'zalligining hayotiyliği yaqin tasviri beriladi. Urducha matnning boshida "Jheniya chokhet per khetri t'hi" jumlasida bilan

boshlanadi, bu ibora o'zbekcha "uyning eshigida tikka turardi" tarzida to'g'ri tarjima qilingan. Bu yerda *to'g'ridan-to'g'ri semantik ekvivalentlik* saqlangan bo'lib, kadr tasviri o'zbek o'quvchisi uchun ham xuddi shunday aniq namoyon bo'ladi. Ko'z va burun uchining qizarishi haqidagi tasvirlar ham deyarli to'liq tarjima qilingan, bu esa obrazning hozirgina yig'lagan holatini ikki matnda ham adekvat yetkazadi.

Farqli o'zgarishlar Jhuniyaning tashqi ko'rinishini tasvirlashda ko'proq seziladi. Urduha matndagi "اس کے بھرے ہوئے، تندرست اور سنڈول اعضا باقuvvat, sog'lom, kelishgan vujudini bildiradi. O'zbekcha matnda bu "durkun, baquvvat, kelishgan qaddi-qomati" sifatida uzatilgan bo'lib, asosiy ma'no to'la saqlangan. Biroq, tarjimada "شباب انگڑائیاں لے رہا" iborasi uning baquvvat, sog'lom, kelishgan vujudini bildiradi. O'zbekcha matnda bu "durkun, baquvvat, kelishgan qaddi-qomati" sifatida uzatilgan bo'lib, asosiy ma'no to'la saqlangan. Biroq, tarjimada "شباب انگڑائیاں لے رہا" — "go'yoki uning yoshlik bahori o'zini namoyon etayotgan edi" mazmunidagi poetik ibora yumshatilgan holda "bahorgi guldek yashnab turardi" shaklida berilgan. Bu o'zbek badiiy nutqidagi shira va poetiklikni saqlashga qaratilgan. Natijada, semantik mazmun berilgan bo'lsa-da, uslubiy rang-baranglik qisman o'zgargan.

Yuz tasvirida ham ba'zi o'zgarishlar kuzatiladi. Urduha matnda "چہرہ بڑا اور گول تھا، گال پھولے ہوئے" jumlasini o'zbekcha variantda "Yuzlari dumaloqqina" tarzida qisqartirilgan. Bu *qisqartirish* orqali semantik umumlashtirish sodir bo'lgan. "آنکھیں چھوٹی اور اندر" iborasi o'zbekchada butunlay tushirib qoldirilgan. Tarjimon ehtimol bunday detallarni o'zbek o'quvchisiga keraksiz deb topgan yoki ayolning jozibasini ta'kidlashni afzal ko'rgan.

Shunga qaramay, urdu matnida alohida urg'u berilgan "سینے کا ابھار اور جسم کا گدگداپن آنکھوں کو" jumlasini o'zbekcha "bo'rtib turgan ko'kraklari bilan momiq badani kishini maftun qilardi" tarzida tarjima qilingan.

Matn oxirida sariy tasviri keltiriladi. Urduha "گلابی ساڑی" iborasi o'zbekcha "pushti rang guldor soriy" tarzida kengaytirilgan. Guldorlik haqidagi detal asl matnda yo'q, bu *tarjimonning stilistik kengaytirishi* bo'lib, obrazning jozibasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Urdu matnidagi "اور بھی زینت بڑھا رہی تھی" jumlasining

"husniga husn qo'shib turardi" shaklida berilishi esa to'liq o'zbek tiliga tarjimada aks etgan.

Bu xotinning ismi Punniy edi. Atigi ikkita tuqqanligiga qaramay, ancha qarib qolgan. Pardoz-andoz qilib buni yashirsa bo'lardi, lekin ovqatning ham tayini yo'q- uyda pardoz andozga pul qani? Shu yo'qchilik, qiyinchiliklar yosh umrini shunchalik hazon qilib badanini qovjiratib, tarasha qilib qo'ygan ediki, bolta ursang, bolta sapchib ketardi. U yaqin keldida, chovdaryning qo'lidan ushlab to'xtatmoqchi bo'ldi.(43 bet)

عورت کا نام پنی تھا۔ بچے دو ہی ہوئے تھے لیکن بدن ڈھل گیا تھا۔ بناو سنگار کے ذریعہ وقت کے ہاتھوں ہونے والی بربادی مگر گرسستی میں کھانے ہی کا ٹکانا نہ تھا، سنگار کے لئے پیسے کہاں آتے اس مفلسی اور مجبورینے اس کی نظرت کی تری کو جذب کر کے اسے سخت اور جشک بنا دیا "تھا جس پر ایک مرتبہ تو پہاڑ ابھی پڑ کر اچٹ جاتا"

Ushbu parchaning satr osti tarjimasini quyidagichadir: "Ayolning ismi Punniy edi. Atigi 2 nafar farzandi bo'lsa ham, tanasi allaqachon bo'shashib qolgan edi. Pardoz orqali yashirsa bo'lardi, ammo ro'zg'orda ovqatning o'zi bo'lmasa bezanish uchun pulni qayerdan olsin? Bu kambag'allik va majburiyat uning nigohidagi namlikni yutib, uni qattiq va qo'pol qilgan edi, bolta ursang sapchib ketar edi.

Keltirilgan parchada Premchand asaridagi Punniy obrazining tasviri aks etgan. Avvalo, o'zbek tilidagi matnda ayolning tashqi ko'rinishi va hayotiy qiyinchiliklar sabab erta qarib qolganligi obrazli, qiyosli tasvirlar yordamida ifodalangan. "Badanini qovjiratib, tarasha qilib qo'ygan ediki, bolta ursang bolta sapchib ketardi" kabi giperbolik metafora mavjud. Ushbu tasvir tarjimada ham saqlangan bo'lib, urdu variantidagi "سخت اور جشک بنا دیا تھا جس پر ایک مرتبہ تو پہاڑ ابھی" iborasi o'zbekcha mazmunni semantik jihatdan to'liq qamrab oladi. Tarjimon bu yerda matnning mazmuniy yuki ayolning hayotdan ezilgan, holdan toygan tanasini o'ziga xos tasvir vositalari orqali qayta yaratgan.

Leksik-semantik moslik nuqtayi nazaridan, tarjima matnida turmush og'irligi ("مفلسی اور مجبوری"), pardoz-andozga imkon yo'qligi, ayolning tashqi ko'rinishidagi o'zgarishlar deyarli to'liq tarjimada

berilgan. Urdu chada "سنگار... بناو سنگار" مگر گزستی میں...
tarjimon o'zbekchaga "سنگار کے لئے پیسے کہاں آتے
so'zma-so'z tarjima qilishdan ko'ra, nutq me'yoriga
mos, kitobxon uchun tabiiy shaklni tanlagan.

Premchand asaridan olingan mazkur parchalar va ularning urdu tiliga berilgan tarjimalari ayol obrazining ijtimoiy hayotdagi o'rni, turmush og'irliklari chuqur badiiy yoritilgan. O'zbekcha matnlar va ularning urdu variantlari o'rtasidagi solishtirma tahlil shuni ko'rsatadiki, tarjimalar nafaqat mazmunan, balki uslubiy me'yorlariga mos tarzda qayta talqin qilingan.

Jhuniya, Dhaniya, Punniy Suna va Ruvpa kabi ayol obrazlari orqali muallif ijtimoiy tengsizlik, kambag'allik, erkaklar hukmronligi, zo'ravonlik, maishiy muammo va ruhiy ezilishlar kabi jamiyatning og'riqli jihatlarni ochib beradi. O'zbekcha tasvirlarda ko'proq obrazli, qiyosli va kuchli metaforik birliklar orqali ayollarning jismoniy va ruhiy holati yorqin ifodalangan bo'lsa, urdu tarjimasida bu mazmun milliy an'anaviy tasvir vositalari bilan uyg'unlashtirilgan holda beriladi.

Har ikkala matnda ayollar qiyofasi jamiyatning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan bevosita bog'liq holda tasvirlanadi. Ayolning charchashi, umrining zavoli, erkaklarning zulmi va hayotning og'ir sharoitlari turli badiiy vositalarda ifodalansa-da, ikkala til matnlarida ham ayolning fojiviy taqdiri umumiy badiiy kontsept sifatida saqlanib qoladi. Bu esa tarjimaning asosiy maqsadi asarning g'oyaviy-badiiy ruhini boshqa til o'quvchisiga yetkazish muvaffaqiyatli amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] ص 651 دہلی (پریم چند۔ گنودان۔ آرمی پریس۔ [1]

[2] – Прем Чанд. Қисмат. Роман (урду тилидан Р.Муҳаммаджонов таржимаси). – Тошкент: Узадабийнашр, 1962. – 542 б.

[3] – Саломов Ф., Комилов Н. "Дўстлик кўприклари". – Тошкент: 1979.

O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J.III. N-Tartibli/Tahrir hay'ati: T.Mirzayev

(rahbar) va b.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

Мадвалиев А. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент, Akademnashr, 2013. – Б. 245.

[4]Халмирзаев Т. Урдурусский сло варь – Пакистан: Муқтадира Кауми Забан, 2012. – 767 с.; Kholmirzaev T. Urdu cha o'z bek cha lug'at – Pokiston: Muqtadira Qaumi Zaban, 2003. – 389 b.; ساتھ کے اضافوں اور اللغات فیروز ۲۰۰۱. ترتیب جدید